

**OLIY TA'LIM TIZIMIDA HAYKALTAROSHLIK FANINI O'QITISHNING O'ZIGA  
XOS XUSUSIYATLARI**

**Panayeva M.M**

*Urganch davlat pedagogika instituti "San'atshunoslik" kafedrasi stajor-o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tasviriy san'at turi ya'ni haykaltaroshlikning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o'xshashliklari bor. Lekin har birining o'ziga xos ishslash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ulaning har biri ishlatilish o'rni, tasvirlaydigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator turlarga bo'linadi.*

**Kalit so'zlar:** *San'at, badiiy, haykaltaroshlik, dumaloq, qabariq, barelyef, gorelyef, kontrrelyef, koynalaglis, panjarasimon*

Ma'lumki, biron-bir xalq ma'naviyatiga xos qadriyatlarning boshqa xalqlar tomonidan tan olinishi shu xalqning g'urur va iftixori, milliy o'zligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda jahon miqyosida buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom ko'rsatilib, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganligi barchamizni quvontiradi.

Mustaqillik yillarida haykaltaroshlikda yirik badiiy yodgorlik haykallar barpo etildi, ularda ajdodlarning yorqin qiyofalarini yaratishga erishildi. Bu davrda haykaltaroshlikda yaratilgan asarning ilk namunasi O'zbekiston milliy bog'inining so'lim go'shasiga o'rnatilgan Alisher Navoiy haykali bo'lib (haykaltaroshlar E.Aliyev, N.Bandzeladze, V.Degtyarov, 1991), u atrof-muhit bilan uyg'unlikda, ramziy ma'noda barpo etilgan me'moriy qism (ayvon) shoirning mahobatli qiyofasini yanada jonlantiradi. Mahobatli haykaltaroshlikda sermahsul ijod qilayotgan I.Jabborov, J. Mirtojiyev va boshqa asarlarida san'atlar sinteziga asoslangan asarlari yuzaga keldi. Rossiyalik haykaltaroshlar Aleksandr Ustenko va Vitaliy Kazanskiy tomonidan 2022-yilda yaratilgan Jaloliddin Manguberdi 25 metrlik bronza haykali Urganch shahrida qad ko'targan.

Mustaqillik davri yangi mafkuraviy sharoiti milliy haykaltaroshlik mavqe'ini mustaxkamlash bosqichini yuzaga keltirdi. Endilikda mazkur soxa avvalgi ijodiy an'analardan farqli ravishda, birgina milliy yo'sinda rivojlanish jarayoniga erishdi. Mazkur holat uning oldingi bosqichidagi muammoli masalaga malham bo'lib, sof maxalliy makonga muvofiq ta'minlana boshladi. To'g'ri, bu jarayon yangi tarixiy sharoitning o'tish davri uchun xos bo'lgan ayrim muammolardan ham xoli emas, albatta. Biroq erishilgan yangi imkoniyatlar va milliy rivojlanishning dastlabki sinovli jarayonida qo'lga kiritilgan ilk natijalar kesimida baholansa, soha istiqboli uchun taxlikali emasligi, balki, vaqt davomida ijobiy yechimini topishiga ishonch uyg'otadi. Muhimi esa haykaltaroshlikda ham san'atning boshqa turlari singari milliy

salmog'ining ortishi, xalqchil darajaga ko'tarila boshlashi va zamonaviy tasviriy san'at miqyosida ham o'z mavqe'ini mustahkamlash bosqichiga o'tishidir.

Haykaltaroshlikning asosiy ikkita turga ajraladi: dumaloq va qabariq(relyef) haykallar. Qabariq (relyef) haykallar ishslash texnikasi bilan tarmoqlarga bo'linadi. Binobarin, keng ma'noda haykaltaroshlik loy, mum, tosh, metall, yog'och, suyak, bronza va boshqa materiallardan inson, hayvonlar va boshqa tabiiy narsalarning taktil, tana shakllarida tasvirini yaratish san'atidir. Haykaltaroshlikning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o'xshashliklari bor. Lekin har birining o'ziga xos tasvirlash ishslash uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ulaning har biri ishlatalish o'ni, tasvirlaydigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator turlarga bo'linadi.

Relyef, bo'rtma tasvir - haykaltaroshlikning bir turi. Tasvir, shakl tekis zamindan bo'rttirib yoki o'yib, chuqurlashtirib hosil qilinadi. Kompozitsiya tabiiy asosdan ajralmasdan tekis sathda yaratiladi. Relyef me'morlik bo'laklari bezagi, haykaltaroshlik asari va boshqa kompozitsiya tarkibiga kirishi yoki mustaqil dastgoh asari bo'lishi mumkin. Asosiy turi — barelyef va gorelyef. O'yma relyefda nursoya jilvasida tasvir ko'zga tashlanadi, imkoniyati cheklangan. Relyef tasviriy san'atda qadimdan mavjud: binolarni bezashda, medal yasash, metallga zarb berib bezak buyumlari ishslash va boshqalarda keng qo'llanadi.

Misr, Ossuriya, Hindiston, Xitoyda, shuningdek, O'zbekiston hududida keng tarqalgan. Uyg'onish davri va keyingi davrlarda ayniqsa rivojlangan.

Barelyef - bu haykaltaroshlik relyefining bir turi bo'lib, unda qavariq tasvir fon tekisligidan tasvirlangan obekt yoki narsalar hajmining yarmidan ko'p bo'lмаган darajada chiqib turadi. Shuningdek, past relyef deb ham ataladi. Barelyef me'moriy inshootlarni bezashning eng keng tarqalgan turlaridan biridir. Birinchi barelyeflar paleolit davrida yaratilgan va chuqur o'yilgan yoki yoyilgan qoyatosh rasmlari bo'lgan deb ishoniladi. Barelyeflar ko'pincha yodgorliklar va haykallar, stelalar, yodgorlik plitalari, tangalar va medallar poydevorini bezash uchun ishlataladi.



1-rasm. Yakov Shapiro.

Gorelyef - haykaltaroshlikning yana bir turi bo'lib, u barelyefdandan farq qiladi, chunki tasvirlangan obekt o'z hajmining yarmidan ko'pini fondan tashqariga chiqarishi mumkin. Shuningdek, yuqori relyef deb ham ataladi. Yuqori relyefdagi tasvir barelyefga qaraganda ancha chuqurroq, hajmliroq va murakkabroq bo'lib chiqadi, bu sizga ko'p figurali sahnalar va landshaftlarni batafsilroq tasvirlash imkonini beradi.



2-rasm. Yakov Sh.

Kontrrelyef - bu tasvir fonga chuqur kirib boradigan relyef. Ko'pincha, bunday relyeflar past-relyeflar va baland relyeflar uchun bo'sh shakl sifatida ishlatalidi. Ayrim avangard haykaltaroshlar ham kontrrelyef ko'rinishida to'laqonli asarlar yaratadilar.



3-rasm .Misr Tutankhamon.


Koylanaglis - Qadimgi Misr, antik va qadimgi Sharq me'morchiligidagi topilgan chuqur kontur va qavariq modellashtirilgan relyef.

Tasvirni belgilab beruvchi tikuvalar material yuzasiga chuqurroq kirib bordi: tasvir fondan chiqmaydi, balki uning yuzasiga mos keladigandek tuyiladi. Boshqa narsalar qatorida, bu tasvirni parchalanishdan himoya qildi.



4-rasm. Karnak ibodatxonasida koylanaglif va kontrrelyef usullaridan foydalangan holda ierogliflar

Panjarasimon relyef - bu tasvirning orqa planning tekisligi yo'qligi (butunlay yoki qisman) bilan farq qiladigan, oddiy relyefdirdi. Odatda, panjarasimon relyef katta bo'limgan o'lchamda bo'ladi. Kamdan kam holda bunday relyeflar ikki tomonlama yasaladi, ya'ni uni har tomonidan tomosha qilsa bo'ladi.



5-rasm. Shedu.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekistonda mustaqillik yillarda mahobatli haykaltaroshligi rivoji o'ziga xos tarzda rivoj topdi. Maskur yillardan boshlangan yangi tarixiy davr boshqa san'at turlari qatori haykaltaroshlik uchun ham e'tiborga sazovor ijodiy o'zgarishlarga yuz tutadi. Yangi madaniy siyosat o'laroq mamlakatda sog'gom ma'naviy muhitni shakllantirish, milliy an'analarni tiklash, tarixiy-madaniy o'zligimizni anglash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi va buning shakllanishi maskur jabxada g'oyaviy-shakliy yangilanish jarayoni vujudga kelib, yangi sifat bosqichiga yo'l ochildi. Haykaltaroshlik san'ati turlarini texnika va texnologiyalarini o'rganish yangi qirralarni mukammalroq farqlashni shakllantiradi.

Umuman olganda, haykaltaroshlik madaniy merosning muhim elementi bo'lib, o'tmish va hozirgi zamonni tushunish va qadrlash hamda kelajakni yaratishga yordam beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- 1.Boymetov.B.B. Haykaltaroshlik. Toshkent, 2003.
- 2.Shobaratov.P. Haykaltaroshlik. Ma'ruzalar matni.2001.
3. Baymetov B.B. Plastik anatomiya (Amaliy mashg'ulotlar). Uslubiy qo'llanma. Toshkent,2011
4. Abduraxmonov G'.M Kompozitsiya «Iqtisod-moliya»,Toshkent, 2010.